https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

**Samiyeva Shirin Abdumalik qiz**

TPMI tayanch doktoranturasi 1- bosqich tayanch doktoranti(PhD)

shirinsamiyeva41@gmail.com

+998938818876

# O‘SMIRLIK DAVRIDA AGRESSIV XULQ-ATVORNI SHAKLLANISHIGA INTERNETNING TA’SIRI

**Annotatsiya.**

Mazkur ilmiy maqolada o‘smirlik davrida agressiv xulq-atvorning shakllanishida internet muhitining tutgan o‘rni kompleks yondashuv asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda zamonaviy raqamli axborot texnologiyalarining o‘smir ongiga ta’siri, xususan, zo‘ravonlikni targ‘ib qiluvchi onlayn materiallar va anonim virtual muloqot shaxsiy rivojlanishga salbiy ta’siri empirik usullar yordamida aniqlangan. Tadqiqot natijalari o‘smirlarning agressiv xulq-atvori ko‘p hollarda nazoratsiz internetdan foydalanish, ijtimoiy tarmoqlarda nojo‘ya muloqotlar va virtual o‘yinlar, videolar orqali shakllanishini ko‘rsatdi. Internetdan nazoratsiz va me’yoridan ortiq foydalanish natijasida agressiya, impulsivlik, empatiya darajasining pasayishi va ijtimoiy moslashuv muammolari yuzaga kelishi ilmiy dalillar asosida asoslab beriladi. Shu bilan birga, oilaviy qo‘llab-quvvatlash, pedagogik yondashuv va sog‘lom ijtimoiy muhit mavjud bo‘lsa, bu salbiy ta’sirlarni kamaytirish mumkinligi isbotlandi. Tadqiqot jarayonida pedagogik, psixologik va sotsiologik manbalarga tayangan holda o‘smirlar orasida agressiv xulq-atvorni oldini olishga qaratilgan samarali profilaktik choralar taklif etiladi. Ushbu maqola natijalari ota-onalar, pedagoglar va ijtimoiy pedagoglar faoliyatida amaliy ahamiyatga ega bo‘lishi bilan ahamiyatlidir.

**Kalit so‘zlar:** o‘smirlik davri, agressiv xulq-atvor, internet ta’siri, ijtimoiy tarmoqlar, virtual muhit, onlayn zo‘ravonlik, psixologik omillar, internetga

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

qaramlik, emotsional beqarorlik, ijtimoiy moslashuv, empatiya pasayishi, profilaktika choralari, raqamli xavfsizlik

**Abstract**

This scientific article analyzes, on the basis of a comprehensive approach, the role of the internet environment in the formation of aggressive behavior during adolescence. Using empirical methods, the study identifies the impact of modern digital information technologies on adolescents' consciousness, in particular the negative influence of online materials promoting violence and anonymous virtual communication on personal development. The research findings indicate that adolescents' aggressive behavior is often shaped by uncontrolled internet use, inappropriate interactions on social networks, as well as virtual games and video content. It is scientifically substantiated that excessive and unsupervised internet use leads to increased aggression, impulsivity, a decrease in empathy levels, and problems of social adaptation. At the same time, it has been proven that the presence of family support, pedagogically sound approaches, and a healthy social environment can reduce these negative effects. Based on pedagogical, psychological, and sociological sources, the study proposes effective preventive measures aimed at preventing aggressive behavior among adolescents. The results of this article are of practical significance for the activities of parents, teachers, and social pedagogues.

**Keywords:** adolescence, aggressive behavior, impact of the Internet, social networks, virtual environment, online violence, psychological factors, Internet addiction, emotional instability, social adaptation, decreased empathy, preventive measures, digital safety.

**Аннотация**

В данной научной статье на основе комплексного подхода анализируется роль интернет-среды в формировании агрессивного поведения

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

в подростковом возрасте. В исследовании с помощью эмпирических методов выявлено влияние современных цифровых информационных технологий на сознание подростков, в частности негативное воздействие онлайн-материалов, пропагандирующих насилие, и анонимного виртуального общения на личностное развитие. Результаты исследования показали, что агрессивное поведение подростков во многих случаях формируется под воздействием неконтролируемого использования интернета, неуместного общения в социальных сетях, а также виртуальных игр и видеоматериалов. Научно обосновано, что чрезмерное и неконтролируемое использование интернета приводит к усилению агрессии, импульсивности, снижению уровня эмпатии и возникновению проблем социальной адаптации. В то же время доказано, что при наличии семейной поддержки, педагогически выверенного подхода и здоровой социальной среды возможно снижение данных негативных воздействий. В ходе исследования, опираясь на педагогические, психологические и социологические источники, предлагаются эффективные профилактические меры, направленные на предупреждение агрессивного поведения среди подростков. Результаты данной статьи имеют практическую значимость для деятельности родителей, педагогов и социальных педагогов.

**Ключевые слова:** подростковый возраст, агрессивное поведение, влияние интернета, социальные сети, виртуальная среда, онлайн-насилие, психологические факторы, интернет-зависимость, эмоциональная нестабильность, социальная адаптация, снижение эмпатии, профилактические меры, цифровая безопасность.

**Kirish.** Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal sur’atlar bilan rivojlanishi, ayniqsa, internet tarmog‘ining keng ommalashuvi, inson hayotining deyarli barcha sohalariga chuqur kirib bordi. Bugungi kunda o‘smirlar ijtimoiy tarmoqlar, video platformalar, onlayn o‘yinlar va boshqa raqamli

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

manbalar orqali katta hajmdagi axborotga tezkor kirish imkoniyatiga ega bo‘lib, bu holat ularning psixologik xolati, emotsional rivojlanishi va xulq-atvoriga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Xususan, virtual makonda zo‘ravonlik, tahdid, kiberbulling, agressiv kontentga boy videolar va o‘yinlarning keng tarqalganligi o‘smirlar ongida agressiv reaktsiyalar shakllanishiga, empatiya darajasining pasayishiga va zo‘ravonlikka nisbatan murosasizlik emas, balki moslashuvchanlik rivojlanishiga olib kelmoqda. Bu esa o‘smirlarning ijtimoiy muhitdagi xatti-harakatlarida salbiy oqibatlarni yuzaga chiqarishi mumkin. Shu sababli yoshlar va bolalarni zararli axborotlardan himoya qilish maqsadida “Axborot texnologiyalari yordamida sodir etiladigan jinoyatlarga qarshi kurashish faoliyatini yanada kuchaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar to‘g‘risida” (PQ-153-son 30-aprel 2025, kuchga kirishi 6-may, 2025) [1] qaroriga binoan ommaviy axborotdagi turli xildagi ma’naviy tahdidlarni oldini olish, jazo choralari to‘g‘risida qarorolar qabul qildi. “Kiberxavfsizlik to‘g‘risida”gi Qonun (O’RQ-764, 25- fevral 2022 qonunchilik palatasida ko‘rildi, kuchga kirishi 17-iyul 2022) [2] ushbu qonun dasturida kiberjinoyat, kiberxavf, kiberhujum haqida ularga qarshi kurashish to‘g‘risida qonunlar qabul qilindi. G’arb va Sharq olimlari psixologiyasida agressiv xulq muammosini chuqur o‘rganishgan. Ko‘plab psixologlar agressiya tushunchasi va turlarini, agressiyani keltirib chiqaruvchi omillarni, agressiyani ijtimoiy moammo eganligi, uni irsiy omillarini, agressiyani karreksion usullarini va bartaraf etish yo‘llarini o‘rganib chiqishgan.

Agressiya atamasi lotin tilidan olingan bo‘lib, «aggredi» –«tajovuz qilmoq» ma’nosini anglatadi. Psixologiyada«agressiya» atamasiga nisbatan turli yondashuvlar mavjud bo‘lib, X.Delgado, A.A.Bass, L.M.Semenyuk, G.Parens, A.Bandura, R.Uolters, Yu.Mojginskiylar tomonidan agressiya salbiy baholanadi. Shu bilan bir qatorda agressiyaga nisbatan ijobiy yondashuvlar ham mavjuddir. Jumladan, L.Bender agressiyaniinsonning o‘z-o‘zini namoyon qilishga intilishidir, deb ta’kidlaydi. O‘smirlarda agressiv xulq-atvorning kelib chiqishi juda dolzarb masala hisoblanadi. Inson agressiyasi

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

ko‘rinishlarining turli-tuman va tubsizligidan kelib chiqib, mazkur xulq-atvorni o‘rganishda D.Bass tomonidan taklif etilgan konseptual ramkalar bilan chegaralanish juda foydali ekanligi bilan ayon bo‘ldi. Uning fikricha, agressiv harakatlarni uchta shkalaga asoslangan holda tasvirlash mumkin. jismoniy, verbal, aktiv-passiv va to‘g‘ri-egri o‘smirlarda agressiyaning kelib chiqishi, oilalarda o‘zotasiyoki onasining mehr-oqibatidan bebahra o‘sayotgan va adolatsizlikka uchrash natijasida turli xil jinoyatlarga qo‘l urish kabi illatlarning namoyon bo‘lishi. [3]

Axborotning haddan tashqari ko‘pligi o‘smir tafakkurining konsentratsiya va tanqidiy tahlil qobiliyatini pasaytiradi. Har kuni yuzlab postlar, videolar, yangiliklar bilan to‘qnash kelgan o‘smir ongida “axborot charchoqligi” vujudga keladi. Bu esa ularning diqqatini bir joyga jamlashni qiyinlashtiradi, chuqur tahliliy fikrlash jarayonini sekinlashtiradi.Ijtimoiy tarmoqlarda o‘zini taqqoslash hodisasi o‘smirning o‘ziga bahosini o‘zgartirib, psixologik bosimni kuchaytiradi. “Like”lar soni, obunachilar, tashqi ko‘rinishga oid izohlar o‘smirda o‘zini boshqalar bilan solishtirish ehtiyojini uyg‘otadi. Natijada, o‘ziga ishonchsizlik, o‘zidan norozilik, past baholash hissi shakllanishi mumkin. Bu holatlar tafakkurning barqarorligiga, real voqealarni mantiqan tahlil qilish qobiliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. [4]

O’smirlarda agressivlikni bartaraf qilish uchun ularga quyidagilarni bajarishni tavsiya qilinadi: -yostiq bilan kurashish; jismoniy harakatli o‘yinlardan foydalanish; qog‘oz yirtish; urishgisi kelayotgan odam rasmini chizish va yirtib tashlash; “hayqiriq xaltachasidan” foydalanish; psixo-gimnastika bilan shug‘ullanish; ertakterapiya, izoterapiya (loy, suv bilan ishlash), artterapiya, musiqaterapiya, animalterapiya –uy hayvonlaridan foydalanish. Yuqoridagi mashqlarni bolaning xarakter xususiyati va vaziyatidan kelib chiqib tavsiya qilinadi. Agressiv bolalar bilan olib boriladigan korreksionishlarda quyidagi o‘yinlardan foydalanish mumkin. [5]

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

**Tadqiqotda quyidagi usullar qo‘llanildi:** Tadqiqot jarayonida suhbat, kuzatish, test, Bass Darkinning “tajovuzkorlikni aniqlash” so‘rovnomalari, qiyosiy tahlil, natijalarni miqdoriy tahlil qilish usullaridan foydalanildi.

**Tadqiqot natijalari:** Bass-Darkin so‘rovnomasi natijalari shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchilar orasida tajovuzkorlik va dushmanlik turlicha ko‘rinishda namoyon bo‘lmoqda. Bunday farqni turli xil sabab va omillari bo’lishi mumkin bunga misol uchun quydagilarni keltirib o’tamiz:

Yuqori dushmanlik va tajovuz darajasi yoshlar orasida zo‘ravonlikka moyillikni bildiradi. Bu holat kelajakda salbiy ijtimoiy xatti-harakatlar (masalan, mobbing, maktabdagi zo‘ravonlik, konflikt) bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Shu sababli bu maktablarda psixologik xizmatni kuchaytirish, agressiyani bartaraf etuvchi profilaktika choralarini ko‘rish, ijtimoiy-psixologik treninglar o‘tkazish zarur. Shahardagi o’smirlarning bo’sh vaqtlarini qiziqarli mashg’ulotlarga almashtirish lozim . Buning uchun esa maktab o’qtuvchilari bilan birgalikda ota – onalar ham shug’ullanishlari kerak.

**Bass Darki “ Tajovuzkorlikni aniqlash” so‘rovnomasiga berilgan jadval shikalani ifodalanishi** (18- maktab)

**1- jadval**

| № | | Qizlar:26 nafar Tajovuz.11(43%) | O‘g‘il bolalar: 42 nafar. Tajov vuz.23(55%) |
|---|---|---|---|
| 1 | Jismoniy tajovuz | 11(43%) | 23(55%) |
| 2 | Vositali tajovuz | 15(58%) | 15% |
| 3 | Qo‘zg‘aluvchanlik | 11(43%) | 23(55%) |
| 4 | Negativizm | 9(35%) | 10% |
| 5 | Xafalik hissi | 8(73%) | 4(17%) |
| 6 | Shubhalanuvchanlik | 6(55%) | 9(39%) |
| 7 | Verbal tajovuz | 11(43%) | 23(55)% |
| 8 | Aybdorlik hissi | 18(69%) | 7% |

Jinsiy tafovut: O‘g‘il bolalarda tajovuz, qizlarda esa dushmanlik kuchliroq namoyon bo‘lgan. Bu esa tajovuzning jinsga xos namoyon bo‘lish shakllarini ko‘rsatadi (ya’ni, erkak bolalarda ochiq harakatlar orqali, qizlarda esa ichki hissiy munosabatlar orqali ifodalanadi). Hududiy farq: Namangan tumanidagi 18-

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

maktabda tajovuz va dushmanlik darajalari Chust tumanidagi maktabga qaraganda nisbatan yuqoriroq. Bu hududiy, ijtimoiy va maktab muhiti omillari bilan izohlanishi mumkin. Maktab muhitidagi ijtimoiy-psixologik iqlim O‘qituvchilar va ota-onalarning nazorati. Mahalliy ommaviy madaniyat yoki ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat.

**Bass Darkining “ Tajovuzkorlikni aniqlash” so‘rovnomasiga berilgan jadval shikalani ifodalanishi (13 – maktab)**

**2- jadval**

| № | | Qizlar:32 nafar Tajovuz: 10(31%) | O‘g‘il bolalar: 30 nafar Tajovuz:14(46%) |
|---|---|---|---|
| 1 | Jismoniy tajovuz | 10(31%) | 14(46%) |
| 2 | Vositali tajovuz | 8(25%) | 16(53%) |
| 3 | Qo‘zg‘aluvchanlik | 10(31%) | 14(46%) |
| 4 | Negativizm | 4(12%) | 8(27%) |
| 5 | Xafalik hissi | 6(60%) | 3(22%) |
| 6 | Shubhalanuvchanlik | 5(50%) | 5(36%) |
| 7 | Verbal tajovuz | 10(31%) | 14(46%) |
| 8 | Aybdorlik hissi | 18(56%) | 11(37%) |

**Bass Darkini “ tajovuzkorlikni aniqlash “ so’rovnomasiga berilgan aniq hisobiy ko’rsatkichlar 3-jadval.**

| № | Viloyat , tuman | Maktab | Metod | Qizlar | | O’g’il bolalar | | Jami: |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | Dushman-lik | Tajovuz | Dushman-lik | Tajovuz | |
| 1 | Namangan viloyati, Namangan Tuman | 18-maktab | Bass Darkin So’rov-nomasi | 8(73%) | 11(48%) | 9(39%) | 23(55%) | 34(50%) Nafar |
| 2 | Namangan viloyat, Chust tuman, Varzik QFY | 13-maktab | Bass Darkin So’rov-nomasi | 6(60%) | 10(31%) | 5(36%) | 14(46%) | 24(38%) Nafar |

Har ikki maktabda o‘tkazilgan Bass-Darkin so‘rovnomasi natijalari shuni

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

ko‘rsatadiki, o‘quvchilar orasida tajovuzkorlik va dushmanlik turlicha ko‘rinishda namoyon bo‘lmoqda. Bunday farqni turli xil sabab va omillari bo’lishi mumkin bunga misol uchun quydagilarni keltirib o’tamiz: Jinsiy tafovut: O‘g‘il bolalarda tajovuz, qizlarda esa dushmanlik kuchliroq namoyon bo‘lgan. Bu esa tajovuzning jinsga xos namoyon bo‘lish shakllarini ko‘rsatadi (ya’ni, erkak bolalarda ochiq harakatlar orqali, qizlarda esa ichki hissiy munosabatlar orqali ifodalanadi). Hududiy farq: Namangan tumanidagi 18-maktabda tajovuz va dushmanlik darajalari Chust tumanidagi maktabga qaraganda nisbatan yuqoriroq. Bu hududiy, ijtimoiy va maktab muhiti omillari bilan izohlanishi mumkin. Maktab muhitidagi ijtimoiy-psixologik iqlim O‘qituvchilar va ota-onalarning nazorati. Mahalliy ommaviy madaniyat yoki ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat. Yuqori dushmanlik va tajovuz darajasi yoshlar orasida zo‘ravonlikka moyillikni bildiradi. Bu holat kelajakda salbiy ijtimoiy xatti-harakatlar (masalan, mobbing, maktabdagi zo‘ravonlik, konflikt) bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Shu sababli bu maktablarda psixologik xizmatni kuchaytirish, agressiyani bartaraf etuvchi profilaktika choralarini ko‘rish, ijtimoiy-psixologik treninglar o‘tkazish zarur. Shahardagi o’smirlarning bo’sh vaqtlarini qiziqarli mashg’ulotlarga almashtirish lozim . Buning uchun esa maktab o’qtuvchilari bilan birgalikda ota – onalar ham shug’ullanishlari kerak.

**Xulosa.** O‘tkazilgan tajriba-sinov ishlari natijalari shuni ko‘rsatdiki, internet, ayniqsa ijtimoiy tarmoqlar va zo‘ravonlikka boy virtual kontentlar o‘smirlar ongiga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Tahlillar asosida aniqlanishicha, o‘smirlar kunlik onlayn faoliyatining davomiyligi va mazmuni ularning ruhiy-emotsional holati hamda ijtimoiy munosabatlariga sezilarli darajada ta’sir qilmoqda. Sinov guruhida internetda tajovuzkor kontentlarni ko‘proq iste’mol qilgan o‘smirlar orasida asabiylik, sabrsizlik, so‘zda va harakatda tajovuzkorlik darajasi yuqori bo‘lgani kuzatildi. Bunga javoban nazorat guruhi, ya’ni internetdan maqsadli va cheklangan foydalanishga yo‘naltirilgan o‘smirlar orasida esa bunday belgilar ancha kam uchradi.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Bu holat, internetdan foydalanuvchilarning psixologik holatini nazorat qilmaslik, axborot tanlamasligi salbiy oqibatlarga olib kelishini isbotlaydi. Shuningdek, o‘smirlik davri psixik jihatdan shakllanish va hayotga nisbatan qarashlar barpo bo‘layotgan murakkab bosqich hisoblanishi sababli, bu davrda onlayn muhitdagi har qanday tajovuzkorlik unsurlari yosh ongga kuchli ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Tadqiqotlar ko‘rsatadiki, internetdagi agressiv kontent nafaqat xatti-harakatlarda, balki o‘smirlarning shaxslararo munosabatlarida ham salbiy iz qoldiradi. Shu boisdan, o‘smirlarning internetdan foydalanish madaniyatini oshirish, ularga media savodxonlik bo‘yicha ta’lim berish, ota-onalar va pedagoglarning nazorati hamda psixologik qo‘llab-quvvatlash tizimini kuchaytirish bugungi kunda dolzarb masalalardan biridir. Tadqiqot natijalari internet vositalaridan foydalanishda yondashuvni tubdan qayta ko‘rib chiqish zarurligini yana bir bor tasdiqlaydi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. “Axborot texnologiyalari yordamida sodir etiladigan jinoyatlarga qarshi kurashish faoliyatini yanada kuchaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori (PQ–153-son). — 2025-yil 30-aprel.
2. “Kiberxavfsizlik to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Qonuni (O‘RQ–764-son).
3. Davletshin M.G. Umumiy va yosh psixologiyasi. — Toshkent: O‘qituvchi, 2018.
4. Karimova V.M. O‘smirlar psixologiyasi va xulq-atvor muammolari. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.
5. O. M. va boshq. O‘smirlar xulq-atvorida agressivlikni shakllanishiga ta’sir etuvchi omillar // Uzluksiz ta’lim. — 2020. — №2. — B. 812–815.
6. R. O., X. A., I. V., A. T. O‘smirlar orasida internet ta’sirida yuzaga keladigan psixologik muammolar // Innovatsion fanlar va innovatsiyalar. — 2021. — T. 2. — №5. — B. 111–114.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

7. H. B., S. O., D. A., X. A. Psixologik barqarorlik va agressiv xulq-atvor o‘rtasidagi bog‘liqlik // Scientific Research Review. — 2022. — T. 3. — №3. — B. 398–402.